BOYSUN BOTANIK GEOGRAFIK RAYONINING (BBGR) QISQACHA TASNIFI HAMDA VALERIANA FICARIIFOLIA (BOISS) TURNING (BBGR) UCHRASHI VA TERILGANLIK DARAJASI.

https://doi.org/10.5281/zenodo.6823702

Muxiddinova Muxlisa Muxiddin qizi
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 3 - kurs talabasi.
Abdullayev Salmonbek Murodali o'g'li
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boysun Botanik Geografik Rayonining (BBGR) tog'lari hamda (BBGR)da Valeriana ficariifolia (Boiss) turning qisqach tasnifi va terilganlik darjasi haqida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Boysun Botanik Geografik Rayonining (BBGR) , Xo'ja-G'urgur-ota, Xo'ja- Qochqor-ota, Bil-Auti, Mingchuqur, Ketmon-Chopdi,Cho'lbair, Xo'ja-Buzbarak-ota ,Valeriana L, Valeriana ficariifolia (Boiss).*

Boysun Botanik Geografik Rayonining (BBGR) Surxondaryo viloyatining , Boysun,Denov,Oltinsoy tumanlari hududida joylashgan bo'lib,Boysun hamda Cho'lbair tog'laridagi Xalqajar, Vaxshivor va Machay daryolarining havzalari mintaqaning asosini tashkil etadi. Boysun tog'i elipsimon shakilda bo'lib 150 km masofada cho'zilgan. Bu hudud geografik jihatdan Pomir-Oloyning Janubiy-G'arbiy Xisor tizmasining yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Baland qoyali tog'lar ma'lum bir chegarada, quyidagi nomlar bilan ataladi: Xo'ja-G'urgur-ota, Xo'ja- Qochqor-ota, Bil-Auti, Mingchuqur, Ketmon-Chopdi,Cho'lbair, Xo'ja-Buzbarak-ota , Bobohuv kabi tog' tizmalari birgalikda Boysun tog' tizmasini hosil qiladi.Cho'lbair tog'i esa Boysun tog'iga nisbatan parallel ravishta qad roslagan. (Oz.Mill.Ensk.2-t, 117-bet). Cho'lbair tog'i Dehibolo, Xojaidod (Qorg'oncha), O'rmonchi(Alyacho'pon) qishloqlari bilan chegaradosh hudud hisoblanadi. Ketmon-Chopdi tog'i Machay daryosi havzasi hamda Boysun shahri oralig'ida joylashgan Boysun tog' tizmasining boshlanish qismi hisoblanadi, Tog'ning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3160 metr. Ketmon-Chopdi tog'i Sanjar cho'qisi orqali Xo'ja-Qo'chqor-ota tog'i bilan bog'lanib turadi. . (Oz.Mill.Ensk.2-t, (117-bet)).

Xo'ja-G'urg'ur –ota tog'i, Xo'ja-Buzbarak,Xo'ja-Chalnomlari deyarli bir joyga nisbatan ishlatiladi, ya'ni Xo'ja-G'urg'ur ota tog'iga. Tog'ning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3223 metr. Tog'ning shimol tomonida parallel ravishta Cho'lbair

tog’i joylashgan. Xo’ja-G’urg’ur -ota tog’idagi Bobohuv cho’qisidan oqib chiqadigan,Dehmalik soyi Alyachopon qishlog’i orqali, Aylangar, Shatut va Paraxnaur kabi soylar Nazari va Qo’rg’oncha qishloqlari orqali Cho’lbair tog’idan Chindon, Qizil-suv, Jindi-suv, Buzbarak-soy kabi soy suvlari ham Alyachapon qishlog’i orqali o’tadi. Bir nechta o’nlab soylar qoshilib Xalqajar daryosini hosil qiladi, Xalqajar daryosiga Cho’lbair tog’ tizmasi Dehibolo darasidagi Sulton-Xochashma yirik bulog’i ham qo’shiladi va bu daryo Dehibolo darasi orqali oqib o’tadi. Tog’ning janub tomonidan qor va buloq suvlari bilan to’yinadigan yirik soylardan biri Chaqmoq soy Machay –daryosiga quyiladi. Bu tog’ o’z novbatida Bel-Auti tog’iga qo’shiladi. (Oz.Mill.Ensk.2-t, (117-580-bet)).

Bel –Auti tog’i Xo’ja- G’urgur ota tog’ining davovi bo’lib, Sariosiyo va Boysun tumanlarini bir- biridan ajratadi, undan tashqari Xisor-Darvoz okrugini Janubiy-G’arbiy Xisor okrugidan ajratib turadi. Tog’ning janub tomonidan Irg’ayli, Ko’kkamar va Qizilsoy kabi yirik soylar o’zaro qo’shilib, Mchay daryosini hosil qiladi. Shimol tomondan esa Mikyan, Pilgar, Qaratosh kabi soylar bo’lib, ular o’z suvlarini Sangardak daryosiga qo’shadi. Bel-Auti tog’I tik qoyali tog’ bo’lib, eng baland nuqtasi dengiz sathidan3239 metr. Bu tog’ Yalangto’sh davoni orqali Cholbair tog’iga bog’lanib turadi. (Butkov,1938 (3-7-bet)) Cho’lbair tog’i- Janubiy-G’arbiy Xisor tog’ tizmasining janubiy- g’arbiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Eng baland joyi dengiz sathidan 3812 metr bo’lib, Xo’ja-Barku deb atalgan. Tog’ning shimoliy tomonidan Kichikdaryo va Nuragan soylar oqib chiqadi va o’z suvlarini Sangardak daryosiga qo’shadi. Janub tomondan esa Chindon, Aksu, Qizilsuv soylari oqib chiqadi va o’z suvlarini Xalqajar daryosiga qo’shadi.(O’z. Mill. Ensk. 9-t, 2005y) Surxondaryo viloyatida O’zbekiston hududida uchraydigan barcha geologik tuzilishi va geomorfologik bosqichlari, hamda tik balandlik mintaqalari (cho’l, adir, tog’, yaylov.) kabi mintaqalar uchraydi. Ularning har biri o’ziga xos genezisiga, geologik va tuproq tuzilishiga ega bo’lgan tabiiy hududiy majmuadir (O’z.Mill.Ensk 8-t 2004y .. A.J.Ibragimov , 2009)

Valeriana L. turkumining umumuy tasnifi, bu turkum Caprifoliaceae (Shilvidoshlar) oilasi tarkibida kiruvchi turkum bo’lib, hayotiy shakli ko’p yillik,barglari to’g’ri kesilgan, uch bo’lakli yoki to’liq barigli. Gullari mayda ikki jinsli yoki ikki uyl, ikki novdali. Corollasining uzunligi 3-5 mm ga ega. Mevasining uzunligi 3-4 mm ga ega gullaganda boshchasimon, mevasi yetilganda ro’vaksimon bo’ladi. Gullari mayda bitta to’pgulda 200 ga yaqin mayda gullar joylashishi mumkin. Bu turkim hamma yerlarda – nam joylardan tortib, tog’-u toshlar, hattoki alp yaylovlarida ham uchratish mumkin. Dorivor valeriana (

valeriana officinalis)- poyasi tik , bo'yi 2 metrgacha , barglari va ildiz mevasining katta kichigligi bilan farq qiladigan bir qancha kenja turlarni hosil qiladi, dorivor o'simlik sifatida ekiladi.Dorivor valeriananing ildizi va ildizpoyasidan tibbiyotda foydalaniladi. Undan nerf sistemasida tasir qiluvchi, yurak urishini tartibga soluvchi valerian tomchisi olinadi. Valeriana tarkibida efir moylari, valerian, sirka va chumoli kislatalar, turli alkaloidlar bor. Ozbekiston tog' mintaqalarida asorun Valeriana ficariifolia (Boiss) tarqalgan. (O'z. Mill. Ensk. 1-jild, Toshkent, 2000-yil)

Tip sifatida: Eron (golestonda) " Siaret'' ,13.05.1859, A. Bunge tomonidan. Valeriana ficariifolia hayotiy shakli bir yillik o'simlik. Poyasi yolg'iz, tik yoki ko'tarilib o'suvchi, tuksiz o'simlik. Ildizlari o'ralgan shunirsimon, diametric 1 mm dan ortiqroq. Poyasi yakka, oddiy, ancha qalin, balandligi 20-50 (80) sm. Mevasi cho'zinchoq tukli uzunligi 3-4 mm li. Bu turning uchrashi : Tog'larning quyi va o'rta qismidagi tosh va daraxtlar soyasida, shuningdek dengiz sathidan 1000 (2000) mert balandlikdan boshlab 2800 (3000) metrgach yoki undan ham balandlikda uchraydi. (Flora of China; FOC 19-jild 666 va 668-betlar; FI.Orient 3-jild,89-bet, 1875 y; Vedeniskiy Flora O'zbekiston 5-t, 588-b, 1961-y; Opredetitel rasteniy sredniy azii, 10-t, 66-b, 1993-y; Flora O'zbekiston 3-t, 79-b, 2019-y;).

Valeriana ficariifolia(Boiss) turning Boysun Botanik Geografik Rayonida (BBGR) uchraganligi: Xodja- Ipakdan 03. 05. 1930-y vedeniskiy; Xoja –G'urg'ur otadan va Turgandaryodan 13. 07. 1934-y Butkov 222; Boysun tog'lari, Machay vodiysi, Chorbog'dan 23. 05. 1978-y Nabiev 329; Boysun hududidan 1964-y Achilov 132;. (Flora O'zbekiston 3-t, 80-b, 2019-y;).

Biz dala amalyoti v ilmiy izlanishlar davomida 08. 05. 2022-yil Boysun Botabik Geografik Rayonida (BBGR)gi Alyachopon qishlog'ida bo'ldik, va Xo'ja –G'urg'ur-ota tog' tizmasidagi Bobohuv cho'qisi hamda uning pastki hududlarida joylashgan kichik tog'lardan, shu jumladan Qarnovsoy, Qorag'urum, Yetimtog' hududlarida bo'lib, Valeriana ficariifolia (Boiss) turini shu hududlarda uchratib, uning hayotiy jarayoni va umumiy tuzilishini ilmiy tadqiqot davomida o'rgandik va gerbariy namunalarini oldik.

Mening umumiy xulosam shundan iboratki Boysun Botabik Geografik Rayonida (BBGR)gi tog'lar: Xo'ja-G'urgur-ota, Xo'ja- Qochqor-ota, Bil-Auti, Mingchuqur, Ketmon-Chopdi,Cho'lbair, Xo'ja-Buzbarak-ota , Bobohuv kabi tog' tizmalari birgalikda Boysun tog' tizmasini hosil qiladi.Cho'lbair tog'i esa Boysun tog'iga nisbatan parallel ravishta qad roslagan. Ketmon-Chopdi tog'i Machay daryosi havzasi hamda Boysun shahri oralig'ida joylashgan Boysun tog' tizmasining boshlanish qismi hisoblanadi. Xo'ja-G'urg'ur –ota tog'i, Xo'ja-Buzbarak,Xo'ja-Chalnomlari deyarli bir joyga nisbatan ishlatiladi, ya'ni Xo'ja-

G’urg’ur ota tog’iga. Tog’ning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3223 metr. Bel –Auti tog’i Xo’ja- G’urgur ota tog’ining davovi bo’lib, Sariosiyo va Boysun tumanlarini bir- biridan ajratadi, undan tashqari Xisor-Darvoz okrugini Janubiy-G’arbiy Xisor okrugidan ajratib turadi.

Valeriana L turkumining umumuy tasnifi, bu turkum Caprifoliaceae (Shilvidoshlar) oilasi tarkibida kiruvchi turkum bo’lib, hayotiy shakli ko’p yillik,barglari to’g’ri kesilgan, uch bo’lakli yoki to’liq barigli. Gullari mayda ikki jinsli yoki ikki uyl, ikki novdali. Valeriana ficariifolia hayotiy shakli bir yillik o’simlik. Poyasi yolg’iz, tik yoki ko’tarilib o’suvchi, tuksiz o’simlik. Ildizlari o’ralgan shunirsimon, diametric 1 mm dan ortiqroq. Poyasi yakka, oddiy, ancha qalin, balandligi 20-50 (80) sm. Boysun Botabik Geografik Rayonida (BBGR)gi tog’larda o’simliklar olamida juda boy ularni ilmiy izlanishlar va dala amalyotlari davomida tahlil qilib boorish va o’rganish juda katta ahamyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Tojiboev.K.Sh. Flora O’zbekiston Toshkent 2019-y 3-t. Sennikov.A.N. Tajiboev.K.Sh. Karimov.F.I. Caprifoliaceae (c 47-96-b)Flora O’zbekiston Toshkent 2019-y 3-t.

2.Oz.Mill.Ensk.2-t, 117-bet

3.(Oz.Mill.Ensk.2-t, (117-580-bet)). (Butkov,1938 (3-7-bet))

4. O’z. Mill. Ensk. 9-t, 2005y

5. O’z.Mill.Ensk 8-t 2004y .. A.J.Ibragimov , 2009

6.O’z. Mill. Ensk. 1-jild, Toshkent, 2000-yil

7.Flora of China; FOC 19-jild 666 va 668-betlar

8. FI.Orient 3-jild,89-bet, 1875 y;

9. Vedeniskiy Flora O’zbekiston 5-t, 588-b, 1961-y.

10.Opredetitel rasteniy sredniy azii, 10-t, 66-b, 1993-y

11. Flora O’zbekiston 3-t, 79-80-b, 2019-y.

12.E.S.Sulaymonov, X.Q. Haydarov, M.A. Hasanov, X.H. Jalov, A.Q.Axmedov,Y.Sh.Toshpo’lotov “Botanika fanidan o’quv dala amalyoti uchun” Toshkent 2015-y

13.www.ipni.com (International plants Name Index)

14.www.powo.com (Plantes of theWorld Online)

15.www.plantarium.ru